

PITNAK QISHLOG'INING TARIXI HAQIDA BILASIZMI?

Ilmiy rahbar: I.M.Xaydarov

TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori.

Matniyozova N

TDSHU, Filologiya va tillarni o'qitish: xitoy tili 1-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Xorazm diyorining markaziy tumanlaridan bo'lgan Tuproqqal'a tumani va u yerda joylashgan qadimiy qishloq Pitnak tarixi, madaniyati va urf-odatları hamda hozirgi kundagi qiyofasi haqida so'z yuritiladi. Maqolada qishloq nomining butunjahon buyuk tarixiy manba “Avesto” kitobida qayd etilishi, Chingizxonning Xorazmga yurishi davrida qishloqning qiyofasi haqida ham faktlarga asoslangan ma'lumotlar keltiriladi. Maqolaning ilmiy maqsadi – o'z yurti tarixini o'rganish orqali Vatan tarixiga hurmat va g'urur tuyg'usini mustahkamlashdir.

KALIT SO'ZLAR: Pitnak, Bitnak, Tuproqqal'a, Katta Chingiz, Kichik Chingiz, Tuyamo'yin GESS, kiyinish madaniyati, laqablar.

“Inson o'z yurti, o'z tuprog'ining tarixini bilmas ekan, uning kelajagi ham bo'lmaydi. Chunki vatanga muhabbat—o'tmishni anglashdan boshlanadi”.

I.Karimov (“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”, 12 bet)

Bugungi kunda mamlakatimiz O'zbekiston tobora yangilanib, zamonaviy qiyofa kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq va mahallalarning bugungi holati kechagidan butunlay farq qiladi – yo'llar, uy-joylar infratuzilma va ijtimoiy sharoitlar tez sur'atlarda yaxshilanmoqda. Yurtimiz bo'ylab minglab qishloq va mahallalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari yaqinda bunyod etilgan, boshqalari esa asrlar davomida shakllanib, boy tarixni o'zida aks ettirib keladi. Shu bois, bu maskanlarning nomlarida ham o'tmishning izlari, qadimiy so'zlar va tarixiy ma'nolar mijassam holda saqlanib qolgan.

Ana shunday tarix va zamonaviylikni chambarchas bog'lab turuvchi qishloqlardan biri Pitnak qishlog'idir. Pitnak qishlog'i Urganch shahridan taxminan 50-55 km sharqda, Hazorasp shahridan esa 15-20 km janubda joylashgan. U o'zining so'lim tabiati, mehmondo'st aholisi, o'ziga xos tuzlangan baliqlari-yu, ta'mi og'izda qoladigan patir va nonlari bilan mashhur. Pitnak qishlog'i Turoqqal'a tumanining markazi, Tuyamo'yin Hidrotexnika inshooti(Tuyamo'yin GES)dan taxminan 10-12 km shimoli-g'arbda joylashgan. Dengiz sathidan balandligi 90-100 metr. Iqlimi keskin kontinental – yoz issiq va quruq, qish sovuq, yog'in kam. Tabiiy suv manbalari:

Amudaryo tarmog‘lari, sug‘orilish kanallari(Tuyamo‘yin tizimi),qolaversa, bo‘z tuproqlari dehqonchilik uchun qulaylik yaratadi.

Qishloq tarixi haqida so‘z borar ekan, avvalo, uning “Pitnak” nomiga tarif berib o‘tish zarur. “Pitnak” qadimgi xorazmiylar tilida Bitnak “cho‘l, sahro” degan ma‘noni ifodalaydi. E. Jo‘rayev: “Betnakqal’a – o‘rmonli tekislik yoki dashti balo cho‘l”, - deb hisoblaydi. Mahalliy tarixchilar “Pitnak” so‘zini qadimgi xorazm tilidan olingan bo‘lib, “pitta”- “yer”, “nak” – “kichik” degan ma‘noda ishlatilgan degan xulosaga kelishgan. Ma‘lumki, Xorazm shevasida “biroz” so‘zi “bitta”, “pitta”, “jittak” kabi bir necha usullarda talaffuz qilinadi va og‘zaki nutqda ishlatiladi. Ya‘ni “Pitnak” so‘zi “kichik yer” degan ma‘noda ishlatilgan. Bu toponim(joy nomi)haqidagi dastlabgi ma‘lumotlar X-XI asrlarda yashagan olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchraydi. Bundan tashqari, qadimiy va muqaddas “Avesto” kitobida ham Pitnak haqida eslanib “Betnak” nomi bilan ataladi. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlarining ma‘naviy muqaddas merosi bo‘lgan “Avesto” kitobining yaratilganiga 2700 yildan oshdi. Ko‘rinib turibdiki, Pitnak qishlog‘i ham Buxoro, Xiva, Samarqand shaharlari kabi ko‘hnadir.

Xumbuztepa yodgorligi ham Pitnak qishlog‘i hududida, Amudaryo bo‘yida, Hazoraspdan 17 km sharqda joylashgan. Uning uzunligi 520 metr, kengligi 65-82 metr. Mazkur yodgorlik arxeologlar tomonidan 1920-1927, 1939-40, 1951-52, 1959-70, 1972-75- yillarda qayta-qayta tadqiq etildi. Yakuniy so‘zni 1996-yil 17-sentabr kuni arxeolog A.M.Levina boshliq arxeologlar e‘lon qildi. Xumbuztepa, Pitnak va Hazoraspdan yoshi 3 ming yilga yaqin deyishdi. Larisa Mixaylova Levina shunday degan: “Xumbuztepa qadim Xorazmning asosiy hunarmandchilik-kulolchilik markazi bo‘lganligiga shak-shubxa yo‘q”.

Xiva xonligi XVI asr boshlarida tashkil topgach, Pitnak xonlik tarkibida namestnichestvo(ya‘ni ma‘muriy viloyat)maqomiga ega bo‘lgan. Qadimgi Pitnak ko‘p jang-u jadallar guvohidir. Yurtimizga tig‘ ko‘tarib kelgan eron, arab, mo‘g‘ul bosqinchilari bilan hal qiluvchi janglar Pitnak qirlari va kengliklarida bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Chingizxon o‘z lashkarlarining sonini bilish uchun jang oldidan har bir navkariga bir to‘rva qumni bir joyga uydirdi. Bundan 5-6 qavatlik binoga teng tepalik vujudga kelgan. Birinchi jangdan katta talofat ko‘rgan Chingizxon jangdan so‘ng yana shu tadbirni qo‘llagan. Bu safar tepalikning balandligi 2 qavatli binoga teng bo‘lgan. Mustamlakachilik davrida yerlar o‘zlashtirilganligi sababli “Kichik Chingiz” tepalik tekislanib yuborilgan. Xalq tilida chingiz uydirtirgan birinchi tepalik “Katta Chingiz” deb ataladi. Bu tepalik hozirda Pitnak qishlog‘idan 4-5 km masofada joylashgan bo‘lib, hayot mamot janglarning guvohi ekanligiga shubxa yo‘q. Bundan tashqari:

1740-yilda Pitnak yaqinida xorazmliklar bilan Nodirshoh qo‘shini o‘rtasida jang bo‘lib o‘tgan. Bu jangda Xiva xoni mag‘lubiyatga uchragan.

1884-yilda o'lkaga kelgan rus elchisi Danilovskiy: "Pitnak qal'a Ollaqulixon davrida qurilgan. Qo'rg'on bilan o'rab olingan 130 hovli, 10 ta do'kon bo'lib, har chorshanba kuni bu yerda bozor bo'ladi. Bu bozorga turli shaharlardan savdogarlar kelib turadi. Shahar aholisi ipak qurti boqish, savdo, dehqonchilik hamda kemachilik bilan shug'ullanganlar"- deb yozadi.

1873-yilda Pitnakni Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari egallaydi va 1920-yilgacha Pitnak namestnichestvosi sifatida tanilgan.

1920-1927-yillar oralig'ida u tuman(rayon)maqomida bo'lgan. Keyinchalik unga 4 ta qo'shni qishloq hududi qo'shilgan.

1924-yil boshlarida Pitnakda mahalliy aholi sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'alon ko'targan.

1992-1998- yillar oralig'ida bu joy "Drujba"(Do'stlik)deb atalgan bo'lishiga qaramay, 1998-yilda o'z nomi qayta tiklangan.

2020-yilga kelib Pitnak qishlog'i yangi tashkil etilgan Tuproqqal'a tumanining ma'muriy markaziga aylangan.

Pitnak tarixi haqida so'z borar ekan undagi o'ziga xos kiyinish odatlari haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Qadimdan kekxa onaxonlar oppoq qordek 5-10 metrlik oq dokani qirg'iz ayollarining bosh o'rashidek qilib o'raganlar. Juvon(ya'ni yoshroq)ayollar esa boshlariga Xivaning popukli do'ppisini kiyib, ostidan oppoq atlas ro'molni o'ng tomonini pastroq, chap tomonini balantroq qilib o'raydilar. Shu kichik qishloqning o'zida – Qang'li, Sayapir, Pastom, Sheklarliklarning shevalari ham bir-biridan farq qiladi.

Bu maskanda nonlar ham bir bo'lakcha, bir shirin. Nonlari 40-45 sm doria shaklida qalin qilib yoyiladi, bu esa uning bir necha kun yumshoqqina saqlanishiga sabab bo'ladi. To'ylarimiz ham kamchilik bilan kunning ikkinchi yarmida o'kaziladi va ularga oqsoqollar boshchilik qiladi.

Qishloqning yana bir ajralib turadigan jihati shundaki, insonlar orasida bir-birlariga laqab(bu odatda sulolalar kesimida boshqalardan ajratish uchun qo'yiladigan qo'shimcha nom)lar qo'yish azaldan odat bo'lgan. Masalan, qishloqdagi mashhur ziyoli oilalardan birining laqabi xorazm shevasidagi "pishik"(mushuk)bo'lgan. Buning kelib chiqishi haqda ikki xil qarash mavjud; birinchisi – qadimda bu oila ajdodlarining ko'zlari mushuksimon shaklda va mo'ylovlari siyrak huddi mushuknikidek bo'lgan; ikkinchisiga ko'ra esa, ularda katta miqdorda mol-mulk egasi bo'lishgan va bu davlatni avlodlariga ham yetkazish maqsadida mushuk shaklida oltin haykalcha yasatib uy qurayorganlarida devorlar orasiga qachonlardur avlodlari topishi uchun berkirishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam,qishlog'im – bu mening tarixim, ildizim va ma'naviy tayanchimdir. Ajdodlarimiz ruhi mujassam, tarix nafasi sezilib tutadigan muqaddas qishlog'imiz tarixi asrlar davomida ko'plab o'zgarishlarni boshdan

kechirgan. Bu maskan qadimdan mehnatkash, mehr-oqibatli va vatanga sadoqatli insonlar bilan tanilgan. Qishloqning rivojlanishida avloddan-avlodga o'tgan an'ana va urf-odatlar muhim o'rin tutgan. Mustaqillik yillarida esa bu hudud yanada obod bo'lib, yangi maktablar, yo'llar va madaniyat maskanlari barpo etilgan. Shu tariqa, Pitnak o'zining boy tarixini saqlab, zamonaviy hayot bilan hamnafas yashayotgan go'zal maskanga aylangan. Bu qishloqning o'tmishini o'rganish orqali shuni angladimki, Vatan tarixi – bu har bir avlodning shaxsiy tarixidir. Zero, o'tgan ajdodlarimizning merosini bilish, ularning bosib o'tgan yo'lini e'zozlash – kelajak oldidagi mas'uliyat va hurmat ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Pitnak va uning osori – antyklari -Madrin Ota (2009)
3. <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=%D0%9E%D0%B1%D1%81%D1%83%D0%B6%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5:%D0%9F%D0%B8%D1%82%D0%BD%D0%B0%D0%BA&action=edit&redlink=1>
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. — 9-jild. Toshkent, 2010
5. O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi – Termiz: 2023